

INTERAKTIV TAQDIMOTLAR YARATISHGA MO'ljallangan vositalarni taxlil qilish VA AMALIYOTGA TADBIQ QILISH METODIKASI

Temirov Komiljon Qobiljon o'g'li
TATU FF, 620-20 guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada interaktiv taqdimotlar yaratishga mo'ljallangan vositalarni taxlil qilish usullari va ularni ta'lim sohasida foydalanishning ijobiy natijalari to'g'risida yoritilgan. Bundan maqolada tashqari interaktiv taqdimotlarni yaratishda keng foydalaniladigan samarali usullar, onlayn servislar to'g'risida qisqacha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Interaktiv, Ta'lim-tarbiya, ijodiy qobiliyat, Prezi onlayn ximati, "Keynote" onlayn ximati, "Mentimeter" onlayn ximati, "Socrative" onlayn ximati, "Kahoot" onlayn ximati, content, teskari aloqa, malaka, ko'nikma, dars jarayoni.

Nima uchun interaktiv taqdimotdan foydalanish kerak?

Ta'lim-tarbiya jarayonida interaktiv taqdimotlardan foydalanishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Interaktiv taqdimotlar o'quvchi va talabalarni dars jarayonidagi muloqotga qiziqtirish va ularga ta'lim berishni osonlik bilan tushuntirishdir. Bu, o'quvchi - talabalarni diqqat e'tiborini darsga yo'naltirishda keng foydalaniladi.

- Interaktiv taqdimotlar mavzuga oid ma'lumotlarni o'rganishga va o'zlashtirishga yordam beradi, chunki, o'quvchilarga ma'lumotlarni taqdim etish jarayonida savol-javoblar orqali ijodiy qobiliyati va imkoniyatini orttirib boradi.

- Interaktiv taqdimotlar ma'lumotlarni o'qitish va o'rganish jarayonida ko'nikmalar yaratishda yordam beradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talabaning ta'lim jarayonida o'z - kamchiliklari va yutuqlarini yaqqol anglashida ijobiy natijalarga erishadi.

- O'quvchilar o'qish va o'rganish jarayonida qatnashish va interaktivlikni oshirishni ko'rishadi.

- Interaktiv taqdimotlar o'rganiladigan mavzuni o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida suhbatlar va muloqotlar tashkil etish imkoniyatlarini taqdim etadi xamda savollar va javoblar, o'zaro muloqotlar orqali darsdagi faolliklarini va qatnashuvchiligini oshirishga yordam beradi.

- Interaktiv taqdimotlar o'quvchilarning o'zini-o'zi baholash, natijalarni taqdim etish va tadqiqot qilish imkoniyatlarini beradi. Bu, o'quvchilarni o'rganishni qanday boshlayotganlarini yaxshi tushunishga yordam beradi.

- Interaktiv taqdimotlar o'quvchilarning ma'lumotlarni o'zlashtirish va o'rganishning oson bo'lishiga yordam beradi.

- Interaktiv taqdimotlar, ilmiy dasturlar, o'quv materiallari tayyorlash, o'quv-tadbirlarda o'rganiladigan ma'lumotlarni eng yaxshi o'rganish uchun foydali bo'lishi mumkin.

Taqdimot tayyorlashda va uni interaktivligini oshirish usullari.

Taqdimotni interaktiv qilish uchun quyidagi usullardan foydalanishingiz mumkin:

Interaktiv taqdimotlar tayyorlashda "Microsoft PowerPoint", "Google Slides", "Prezi", "Keynote", "Mentimeter", "Socrative", "Kahoot" va boshqa onlayn va desktop versiyali taqdimot dasturlaridan foydalanish mumkin. Bu dasturlar bizga interaktiv vositalar, savollar, animatsiyalar, grafiklar va ko'plab boshqa interaktiv elementlar (o'yinlar) qo'shish imkoniyatini beradi.

Taqdimotlarni tayyorlashda savol va javobli, topishmoqlar va testlardan foydalanib interaktiv qilish mumkin. Savol va muammoli topishmoqlar o'qituvchi tomonidan qo'yilishi, o'quvchilar tomonidan esa ularga javob yechish, izlash va natijalarni ko'rsatishga olish ta'lim samaradorligini oshiradi. Bunday interaktiv vosita qo'shib turish o'quvchilarni o'rganishga qiziqtirish uchun foydali bo'ladi. Dars mavzusini ma'lumotlarini o'quvchilarga yanada interaktivligini ko'rsatish uchun animatsiyalar, tasvirlar, videolar va boshqa multimediyali kontentlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday kontentlar ma'lumotlarni o'quvchilar uchun ko'rib chiqarib, tasavvur qilishlariga va fikrlash qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

O'quvchilar bilan o'zaro muloqotlar va suhbatlar tashkil etish interaktiv taqdimotlarning qismini tashkil etadi. O'quvchilar savollar so'rash, fikrlarni ifodalash va taqdimot mavzusini yanada tushuntirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Interaktiv dastur (vosita)lar yordamida, o'quvchilar o'rganiladigan mavzu ma'lumotini o'rganish jarayonida o'zlariga berilgan imkoniyatdan keng foydalanadi. Misol uchun, "online quiz", "mentimeter", "Jamboard" va boshqa dasturlar o'rganiladigan taqdimotni interaktiv qilishda yordam bera olishi mumkin.

Interaktiv taqdimotlar o'quvchilarni ma'lumotlarni o'rganish, tushuntirish va o'zlashtirishga olib kelish uchun taqdimotni ko'rish va qiziqtirishlarini oshirish va ma'lumotlarni o'rganishlarini osonlashtirish uchun foydali bo'ladi.

Xulosa o'zni shuni aytish kerakki Interaktiv taqdimotlar o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyatini olib boorish, teskari aloqani olib borish, xamda

o'qituvchidan o'quvchiga ma'lumotlarni yetib borish oqimi tezlashtiradi. Xuddi ana shu jarayon o'quvchilarning o'quv mehnatini rag'batlantirish imkonini ham beradi.

Интерактив taqdimotlardan foydalanishda maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va Oliy ta'lim muassasalarida foydalanish uchun samarali usul hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Qodirov, X. O., Norinov, M. U., & Ergashev, A. A. (2023). UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING INSONPARVARLASHUV XUSUSIYATLARI. *Research and implementation*, 1(6), 45-50.
2. Qodirov, X. O., Norinov, M. U., & Ergashev, A. A. (2023). O 'ZBEK JADID MUTAFAKKIRI ABDULLA AVLONIYNING INSON VA TABIAT MUNOSABATLARI HAQIDAGI QARASHLARI. *Research and implementation*, 1(6), 40-44.
3. Мухтаров, Ф. М., & Орибжонович, Қ. Х. (2023, April). Олий Таълимда Инновацион-Педагогик Фаолиятнинг Ижтимоий-Психологик Хусусиятлари. In *International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses* (pp. 39-44).
4. Haqberdiyev, B. R., Otaxonova, S. F., & Qodirova, D. I. (2021, November). INCREASING STUDENT CREATIVITY IN THE INTEGRATION OF DRAWING AND DESIGN SCIENCES. In *Archive of Conferences* (pp. 42-43).
5. Haqberdiyev, B. R., & Otaxonova, S. F. (2022, August). Tasviriy san'at mohiyati, tur va janrlari. In *E Conference Zone* (pp. 21-25).
6. Muratovna, O. Z. (2023). THEORETICAL FOUNDATIONS OF USING THE TRADITIONS OF FOLK PEDAGOGY IN EDUCATING THE YOUNG GENERATION IN THE NATIONAL SPIRIT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(10), 74-77.
7. Ражабов, М. Ж., & Ражабова, Х. Х. (2022). МАНИПУЛЯЦИЯ ТУРЛАРИ ВА ОДАМЛАРДА РЕПРЕЗЕНТАТИВ ТИЗИМНИНГ ИФОДАЛАНИШИ: Ражабов Муродил Жумабоевич, Фаргона давлат университети катта ўқитувчиси. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (6), 262-266.
8. Rajabova, X. X., & Dekhkanova, M. B. (2023). TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATI TA'LIM-TARBIYA JARAYONINING PIROVARD NATIJASI SIFATIDA. *Academic research in educational sciences*, 4(TMA Conference), 251-255.
9. Ражабова, Х. Х. (2023). ТАЛАБА ЁШЛАР ЎЗ-ЎЗИНИ АНГЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(10), 78-84.

10. Sulstonov, S. (2023). MASHINALI O'QITISH TUSHUNCHASI VA MASHINALI O'QITISH JARAYONINING UMUMIY QADAMLARI. Engineering problems and innovations.
11. Sulstonov, S. (2023). IMPORTANCE OF PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE IN MACHINE LEARNING. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(9), 28-30.
12. Рахманов, А. Т., & Султонов, С. (2023). ОБ ОДНОМ СПОСОБЕ РЕШЕНИЯ ЗАДАЧИ КЛАССИФИКАЦИИ. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(9), 45-48.
13. Махаммадусуфович, I. S. (2022). savdo tarmoqlarida axborot almashinuvini va avtomatlashtirilgan monitoring. Journal of new century innovations, 7(3), 13-16.
14. Isroilov, S. (2023). PEDAGOGIK FAOLIYATDA TA'LIM METODLARI VA INNOVATSION METODLARNING O'RNI VA AFZALLIK TOMONLARI. Engineering problems and innovations.
15. Ermatov, N. J., Nishonov, Y. N., Mamasaidov, J. T., & Isroilov, M. S. (2022). MORPHOLOGICAL INDICATIONS OF THE EFFICACY OF A CONSERVATIVE APPROACH TO THE TREATMENT OF DOLICHOSIGMIA IN CHILDREN. Art of Medicine. International Medical Scientific Journal, 2(3).